INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI

Abduqaxorova Xumora Baxtiyor qizi
Respublika musiqa va san'at oliy maktabi,
Umumiy fortepiano kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: abduqaxorovaaxumora@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23072332

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi nazariy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda inklyuziv ta’lim faqat alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarni umumiy ta’lim muhitiga jalb etish masalasi sifatida emas, balki har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini pedagogik jihatdan moslashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. O‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun diagnostika, individual ehtiyojlarni aniqlash, pedagogik moslashtirish, differensial ijodiy topshiriqlar, hamkorlikdagi faoliyat, mustaqil ijodiy ifoda va refleksiyani o‘z ichiga olgan siklik pedagogik mexanizm taklif etiladi. Tadqiqotda “bir xil maqsad — turli pedagogik yo‘l” tamoyili umumiy ta’limiy maqsadlarni saqlagan holda individual pedagogik yondashuvni amalga oshirishning muhim sharti sifatida asoslanadi. Shuningdek, mazkur mexanizmning musiqa ta’limidagi amaliy imkoniyatlari umumiy pedagogik modelni konkretlashtiruvchi kontekst sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, ijodiy salohiyat, pedagogik mexanizm, individual yondashuv, differensial ta’lim, pedagogik moslashtirish, refleksiya, ijodiy faoliyat.

Аннотация: В статье теоретически обосновывается педагогический механизм развития творческого потенциала учащихся в условиях инклюзивного образования. Инклюзивное образование рассматривается не только как совместное обучение детей с различными образовательными потребностями, но и как процесс педагогической адаптации образовательной среды с учетом индивидуальных возможностей, потребностей и темпов развития каждого учащегося. Предлагаемый механизм включает диагностику, выявление индивидуальных образовательных потребностей, педагогическую адаптацию, дифференцированные творческие задания, совместную деятельность, самостоятельное творческое выражение и рефлексию. Обосновывается принцип «единая цель — разные педагогические пути», предполагающий сохранение общих образовательных целей при вариативности способов их достижения. Музыкальная деятельность рассматривается как практический контекст конкретизации общего педагогического механизма, а не как самостоятельный объект исследования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, творческий потенциал, педагогический механизм, индивидуальный подход, дифференциация, педагогическая адаптация, рефлексия, творческая деятельность.

Abstract. The article theoretically substantiates a pedagogical mechanism for developing students' creative potential in inclusive education. Inclusive education is considered not only as the joint education of learners with different educational needs, but also as a process of pedagogical adaptation of the educational environment according to the individual abilities, needs and developmental pace of each learner. The proposed pedagogical mechanism includes diagnosis, identification of individual educational needs, pedagogical adaptation, differentiated creative tasks, collaborative activity, independent creative expression and reflection. The principle of "one common goal — different pedagogical pathways" is[6] substantiated as an important condition for maintaining common educational goals while providing individualized ways of achieving them. Musical activity is considered as a practical context for modelling the general pedagogical mechanism rather than as the independent object of the research.

Keywords: inclusive education, special educational needs, creative potential, pedagogical mechanism, individual approach, differentiation, pedagogical adaptation, reflection, creative activity.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchining faqat bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki mustaqil fikrlashi, tashabbus ko'rsatishi, muammoli vaziyatlarga turlicha yondashishi va o'z imkoniyatlarini ijodiy faoliyat orqali namoyon qilishi ham muhim pedagogik natijalardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari shakllantirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan Nizomda inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim shakli sifatida belgilangan[1]. Mazkur yondashuv inklyuziv ta'limni faqat o'quvchini umumiy sinfga kiritish bilan chegaralamasdan, ta'lim jarayonining o'zini o'quvchining individual imkoniyatlariga moslashtirish masalasini ham kun tartibiga qo'yadi. Shu nuqtayi nazardan, asosiy pedagogik muammo quyidagicha ifodalanadi: umumiy ta'limiy maqsadlarni saqlagan holda turli individual imkoniyatlarga ega o'quvchilar uchun ijodiy faoliyatni qanday tashkil etish mumkin?

Mazkur maqolada ushbu muammo o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi.

ASOSIY QISIM: INKLYUZIV TA'LIM VA IJODIY SALOHIYAT

Ijodiy salohiyatni faqat yuqori darajadagi maxsus qobiliyat bilan tenglashtirish pedagogik jihatdan tor yondashuv hisoblanadi. Ijodkorlik o'quvchining mavjud vaziyatga yangi yondashuv topishi, muqobil yechim taklif qilishi, o'z fikrini mustaqil ifodalashi va mavjud bilimlarni yangi vaziyatda qo'llashi orqali ham namoyon bo'ladi. Inklyuziv ta'limda

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida". Qarorga 1-ilova: "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

ushbu imkoniyatlarni namoyon qilish uchun pedagogik sharoit yaratish muhimdir. Chunki o‘quvchining ijodiy faoliyatga kirishish imkoniyati faqat uning individual qobiliyatiga emas, balki ta’lim muhitining qanday tashkil etilganiga ham bog‘liq.

Bu fikrni musiqa ta’limi kontekstidagi zamonaviy tadqiqotlar ham qo‘llab-quvvatlaydi. Mommo, Sutela va Mononen tomonidan 2025-yilda e’lon qilingan tizimli sharhda 2010–2023-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, o‘quvchiga yo‘naltirilgan pedagogika, tengdoshlar bilan o‘zaro hamkorlik, birgalikda o‘qitish va turli pedagogik metodlardan foydalanish inklyuziv musiqa ta’limida foydali amaliyotlar sifatida ko‘rsatilgan.[2]

Inklyuziya va kreativlik o‘rtasidagi aloqaga bag‘ishlangan 2025-yilgi tizimli sharhda ham turli maktab kontekstlaridagi inklyuziv pedagogik amaliyotlarning kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda 2008–2025-yillar oralig‘idagi materiallar ko‘rib chiqilib, 25 ta tadqiqot tahlil qilingan.[3]

Shu asosda ijodiy faoliyatni inklyuziv ta’limning ikkilamchi elementi emas, balki o‘quvchining faol ishtiroki va individual imkoniyatlarini namoyon qilishga xizmat qiluvchi pedagogik vositalardan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan pedagogik mexanizm yetti o‘zaro bog‘langan bosqichdan iborat.

- **Diagnostika**

Dastlab o‘quvchining mavjud bilimlari, qiziqishlari, faoliyatga munosabati, mustaqil ishlash imkoniyati, muloqot xususiyatlari va ijodiy faoliyatga kirishish darajasi aniqlanadi.

Mazkur diagnostikaning maqsadi o‘quvchilarni “qobiliyatli” yoki “qobiliyatsiz” guruhlarga ajratish emas. Uning vazifasi pedagog uchun o‘quvchiga qanday yordam va qanday pedagogik sharoit zarurligini aniqlashdan iborat.

- **Individual ehtiyojni aniqlash**

Diagnostika natijalariga asoslanib, o‘quvchining ta’lim jarayonida qanday qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoji borligi belgilanadi. Masalan, ayrim o‘quvchi topshiriqni og‘zaki tushuntirish orqali yaxshiroq o‘zlashtirishi, boshqasi vizual materialga, yana biri amaliy namoyishga yoki qo‘shimcha vaqtga ehtiyoj sezishi mumkin.

- **Pedagogik moslashtirish**

Ushbu bosqichda umumiy ta’limiy maqsad saqlangan holda topshiriq shakli, taqdim etish usuli, bajarish vaqti, yordam darajasi yoki faoliyat vositasi moslashtiriladi. Demak, pedagogik moslashtirish ta’lim mazmunini o‘quvchidan olib tashlash emas, balki unga mazkur mazmunni o‘z imkoniyatlari orqali o‘zlashtirish imkonini yaratishdir.

- **Differensial ijodiy faoliyat**

O‘quvchilarga bitta umumiy ijodiy maqsad doirasida turli murakkablikdagi yoki turli bajarish shaklidagi topshiriqlar taklif etiladi. Masalan, bir o‘quvchi o‘z g‘oyasini yozma shaklda, boshqasi rasm yoki sxema orqali, uchinchisi og‘zaki, amaliy yoki musiqiy faoliyat

[2] Mommo O., Sutela K., Mononen R. Inclusion and pedagogical support for students with special educational needs in music lessons: A systematic review // Research Studies in Music Education. 2025. Vol. 47, Issue 3. P. 403–423. DOI: 10.1177/1321103X251342143

[3] Zluhan M.R., Corrêa S.S., Zwierewicz M., Violant-Holz V. The Interface Between Inclusion and Creativity: A Qualitative Scoping Systematic Review of Practices Developed in High School // Education Sciences. 2025. Vol. 15, No. 10. Article 1281. DOI: 10.3390/educsci15101281.

orqali ifodalashi mumkin. Bu bosqichda asosiy mezon topshiriq shaklining bir xilligi emas, balki o‘quvchining ijodiy fikrni mustaqil ifodalash imkoniyatidir.

- **Hamkorlikdagi faoliyat**

Ijodiy faoliyat individual va guruhiy shakllarda tashkil qilinadi. O‘quvchilar fikr almashish, bir-birining g‘oyalarini to‘ldirish va umumiy natija yaratish jarayoniga jalb qilinadi. Hamkorlik o‘quvchining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, o‘z g‘oyasini himoya qilish, boshqa fikrni qabul qilish va muqobil yechimlarni izlash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

- **Mustaqil ijodiy ifoda**

Mazkur bosqichda o‘quvchiga o‘z g‘oyasini mustaqil tarzda namoyon qilish imkoniyati beriladi. Pedagog bu jarayonda tayyor javobni beruvchi emas, balki o‘quvchining ijodiy faoliyatini yo‘naltiruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

- **Refleksiya va qayta moslashtirish**

Faoliyat yakunida o‘quvchi o‘z ishini tahlil qiladi: nimani bajardi, nimada qiyinchilikka duch keldi, qanday yechim topdi va keyingi faoliyatida nimani o‘zgartirishi mumkinligini aniqlaydi. Pedagog esa ushbu ma’lumotlardan keyingi mashg‘ulotlarni rejalashtirish va pedagogik yondashuvni qayta moslashtirishda foydalanadi.

Shunday qilib, mexanizm quyidagi siklik modelni hosil qiladi:

Diagnostika → individual ehtiyoj → moslashtirish → ijodiy faoliyat → hamkorlik → mustaqil ifoda → refleksiya → qayta moslashtirish.

Mazkur tadqiqotning asosiy obyekti musiqa metodikasi emas, balki inklyuziv ta’lim sharoitida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmidir. Shu sababli musiqa faoliyati ushbu mexanizmning amaliy imkoniyatlarini ko‘rsatish vositasi sifatida qo‘llanadi.

Masalan, musiqa mashg‘ulotida o‘quvchining ritmik eshitishi yoki musiqiy ifodalash imkoniyati dastlab aniqlanishi mumkin. Keyingi bosqichda topshiriq o‘quvchining individual imkoniyatiga moslashtiriladi. Bir o‘quvchi ritmik namunani ijro etsa, boshqa o‘quvchi uni grafik belgi orqali ifodalashi yoki guruh bilan hamkorlikda ijodiy topshiriqni bajarishi mumkin. Bu yerda musiqa tadqiqotning mustaqil maqsadi emas. U “bir xil maqsad — turli pedagogik yo‘l” tamoyilini amaliy jihatdan ko‘rsatib beruvchi pedagogik kontekst sifatida xizmat qiladi.

Shu jihatdan ishlab chiqilgan mexanizmni tasviriy san’at, adabiyot, texnologiya, boshlang‘ich ta’lim va boshqa fanlarda ham moslashtirib qo‘llash imkoniyati mavjud.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayoni yaxlit pedagogik mexanizm sifatida tizimlashtirildi.

2. “Bir xil maqsad — turli pedagogik yo‘l” tamoyili umumiy ta’limiy maqsad va individual pedagogik yondashuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi pedagogik tamoyil sifatida taklif qilindi.

3. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish diagnostika, pedagogik moslashtirish, ijodiy faoliyat, hamkorlik va refleksiya o‘rtasidagi siklik aloqadorlik asosida talqin qilindi.

4. O‘quvchining ijodiy salohiyatini baholashda faqat yakuniy ijodiy mahsulot emas, balki mustaqillik, tashabbus, moslashuvchanlik, hamkorlik va refleksiya kabi jarayon ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish taklif qilindi.

5. Musiqiy faoliyat umumiy pedagogik mexanizmni konkretlashtiruvchi amaliy kontekst sifatida belgilandi.

Amaliy ahamiyati. Taklif etilayotgan pedagogik mexanizm asosida o‘qituvchilar uchun differensial ijodiy topshiriqlar banki, individual pedagogik kuzatuv kartalari, refleksiv savollar, ijodiy faoliyat monitoringi va moslashtirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish mumkin.

Mazkur mexanizm musiqa ta’limida, shuningdek, boshqa ijodiy fanlarda ham qo‘llanishi mumkin. Uning asosiy amaliy imkoniyati umumiy pedagogik maqsadni saqlagan holda faoliyat yo‘llarini o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirishdan iborat.

XULOSA

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish o‘quvchining individual imkoniyatlarini namoyon etish va uning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vazifalardan biridir. Tadqiqot doirasida taklif etilgan pedagogik mexanizm diagnostika, individual ehtiyojni aniqlash, pedagogik moslashtirish, differensial ijodiy faoliyat, hamkorlik, mustaqil ijodiy ifoda va refleksiyani o‘zaro bog‘langan siklik jarayon sifatida birlashtiradi.

Mazkur yondashuvning markaziy g‘oyasi — barcha o‘quvchilar uchun umumiy ta’limiy maqsadni saqlagan holda ushbu maqsadga erishishning pedagogik yo‘llarini individual ehtiyojlarga moslashtirishdir.

Shunday qilib, inklyuziv ta’limni faqat o‘quvchini umumiy ta’lim muhitiga kiritish bilan cheklamasdan, uning faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbusi va individual imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish zarur.

Taklif etilgan model nazariy-pedagogik jihatdan asoslangan bo‘lib, uning amaliy samaradorligini keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish mumkin. Shu sababli modelning empirik samaradorligini aniqlash keyingi tadqiqotning alohida vazifasi sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida. — Toshkent, 2021.
2. Mommo O., Sutela K., Mononen R. Inclusion and pedagogical support for students with special educational needs in music lessons: A systematic review // Research Studies in Music Education. — 2025. — Vol. 47, Issue 3. — P. 403–423. — DOI: 10.1177/1321103X251342143.
3. Zluhan M.R., Corrêa S.S., Zwierewicz M., Violant-Holz V. The Interface Between Inclusion and Creativity: A Qualitative Scoping Systematic Review of Practices Developed in High School // Education Sciences. — 2025. — Vol. 15, No. 10. — Article 1281. — DOI: 10.3390/educsci15101281.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — Toshkent, 2020.

5. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. — Paris: UNESCO, 1994.
6. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Article 24: Education. — New York: United Nations, 2006.